

XALQ OG'ZAKI IJODIDA RANGLAR TASVIRI

Nurboyeva Gulyora Baxodir qizi,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Sharipova Sunbula Ahad qizi,

ilmiy rahbar, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodida ranglarning o'ziga xos poetik funksiyalari, badiiy maqsadni yuzaga chiqarishdagi ahamiyati, ular tashigan ramziylikdagi o'ziga xosliklar, ziddiyatli talqinlar haqida mulohaza yuritiladi. Fikrlar xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, dostonlar, ertaklar, maqollar va xalq qo'shiqlari orqali xulosalanadigan tasviri, ularning madaniy estetik ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida ranglarning funksional roli va ularning dunyoqarashi bilan bog'liqligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlari. Xalq og'zaki ijodi, tasviriy san'at, ramziylik, maqollar, madaniyat, ranglar.

HALK EDEBIYATINDA RENKLERIN PORTRESI

Nurboyeva Gulyora Bakhodir kizi

Özbek-Finlandiya pedagogiya institutida o'qituvchisi

Sharipova Sunbula Ahad kizi,

Bilimsel danışman, Özbek dili ve edebiyatı bölümü öğretmeni

Özet. Bu makalede, Özbek halk sanatında renklerin benzersiz şiirsel işlevleri, sanatsal hedefleri ifade etmedeki önemleri, ilettikleri benzersiz sembolizm ve çelişkili yorumları ele alınmaktadır. Fikirler, özellikle destanlar, masallar, atasözleri ve halk şarkıları olmak üzere halk sözlü sanatı örnekleriyle özetleniyor ve bunların tasviri, kültürel estetik önemlerine ışık tutuyor. Ayrıca folklorda renklerin işlevsel rolü ve dünya görüşüyle bağlantısı tartışılmaktadır.

Anahtar kelimeler. Folklor, görsel sanatlar, sembolizm, atasözleri, kültür, renkler.

ПОРТРЕТ ЦВЕТОВ В НАРОДНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Нурбоева Гулёра Баходира кызы,

Студентка Узбекско-Финский педагогический институт

Научный руководитель: Шарипова Сунбула Ахад кызы

Преподаватель кафедры Узбекского языка и литературы

Аннотация. В статье рассматриваются уникальные поэтические функции цветов в узбекском народном искусстве, их значение в выражении художественных целей, уникальная символика, которую они передают, и их противоречивые интерпретации. Идеи обобщены на примерах народного устного творчества, в частности, былин, сказок, пословиц и народных песен, а их изображение раскрывает их культурно-эстетическую значимость. В статье также обсуждается функциональная роль цветов в фольклоре и их связь с мировоззрением.

Ключевые слова. Фольклор, изобразительное искусство, символика, пословицы, культура, цвета.

THE PORTRAIT OF COLORS IN FOLK FOLK LITERATURE

Nurboyeva Gulyora Bakhodir qizi,

Student of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

Sharipova Sunbula Ahad qizi,
Scientific supervisor, teacher of the Department of Uzbek Language and Literature

Annotation. This article discusses the specific poetic functions of colors in Uzbek folk folklore, their importance in revealing the artistic purpose, the peculiarities of the symbolism they carry, and their contradictory interpretations. The ideas are summarized through examples of folk folklore, in particular, epics, fairy tales, proverbs and folk songs, highlighting their cultural aesthetic significance. The functional role of colors in folk art and their connection with worldview are also discussed.

Keywords. Folk art, visual arts, symbolism, proverbs, culture, colors.

Ranglar nafaqat bezak yoki tasviriy vosita, balki chuqur semantik ma'noga ega bo'lgan element sifatida ham ahamiyatlidir. Abu Rayxon Beruniy o'zining "Kitob al-Javohir-ma'rifat ul-Javohir" asarida 200 dan ortiq ranglarni sanab o'tgan va ranglarning kelib chiqishi haqida ham o'z mulohazalarini bildirgan. Zamonaviy fan dunyoda 7 ta asosiy rang mavjud bo'lib, qolganlari esa ushbu ranglarning aralashuvidan hosil bo'lganligini e'tirof etadi. Har bir rang turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinishi mumkin, ammo ularning xalq og'zaki ijodidagi tahliliga nazar tashlar ekanmiz turli xalqlar folklorida birmuncha umumiylik va o'ziga xoslikni payqash mumkin. Shu o'rinda Shayx Najmiddin Kubroning yetti xil rangni yetti tushunchaga moslab bergan ta'rifini keltirib o'tishni joiz topdik:

Oq – islom, sariq – iymon, zangori – ehson, yashil - ishonch, ko'k - to'liq ishonch, qizil – irfon, qora-hayajon, hayratni anglatgan.

Oq rang – poklik va muqaddaslik ramzi. Oq rang xalq ijodida eng ko'p uchraydigan ramziyliklardan biri bo'lib, u odatda poklik, begunohlik, muqaddaslik va yorug'lik timsoli sifatida ishlatiladi. Masalan, xalq ertaklarida oq otl yigit odatda yaxshilik va adolat timsoli bo'lib, oq rang shaxsiy fazilatlarini aks ettiriladi. Jumaladan, "Avesto"da oq - yorug'likning ziddi o'laroq ta'rif va tavsif etilgani barchamizga yaxshi ma'lum. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, oq rangga nisbatan shunga yaqin munosabatlar ba'zi xalqlarda, masalan, turkiy qavmlarda ham hokimlik qilganligini ko'rishimiz mumkin. Turkiy qavmlar oq rangni *motam*, *musibat* *hatto qurg'oqchilik* alomati deb hisoblashgan.

Ozarbayjonlik olim M.Saidovning yozishicha: "Oltoyliklarda oq rang *motam* ramzidir. Manbalar, Chinda yashagan turkiy tilli solorlar uchun oq ranggining boshqa ma'nolar bilan bir qatorda, *motam* timsoli bo'lganligidan xabar beradi. Faqat turkiylarda emas, boshqa ayrim xalqlarda ham ko'k va oq *motam*, qayg'u ramzi sanalgan. Ma'bud va ruhlar bilan muloqot vositasi sifatida - hudolarning, farishtalarning, avliyolarning hurlarning jannatdagi kiyimi Yaxud, Braxman, Abshabxlarning aksini ifodalaydi. Tibet buddasining beshlik ramzi: Pravaslav va katolik cherkovlari xizmatchilarning kiyimi, xristianlik belgilarining ramzidir. Bular bilan bir qatorda, yaponlarda xrizontema, oq laylak, turnalari timsoli; Xitoyda G'arb belgisi, kuz va metall belgisi, Hindistonda - quyosh timsoli; Braxmanlar kastasining ranggi, shuningdek *motam* libosi; Xristianlarda – oq liliya, oq atirgul, ona Mariya (Bibi Maryam) timsoli; Oq bayroqlar esa hamisha tinchlik, sulh va birodarlik ma'nolarini ifodalagan. Oq rangning salbiy jihatlari: o'limni, kasallikni bildirishi mumkin. Ba'zi yapon klassik she'rlarida esa ayrilish, qiyinchilik, yetishib bo'lmaydigan muhabbatning qiyinchiligini bildiradi. Folklorida oq rang ko'pincha qizil va ko'k ranglar bilan birga qo'llaniladi. Masalan, bolalar folklorida mashhur bo'lgan "Oq terakmi, ko'k terak", "Oq olma, qizil olma" kabi lirik qo'shiqlar ayni fikrni tasdiqlaydi. Xalq orasida "oq ilon"-*"uy iloni"*, *uni o'ldrish baxtsizlik keltiradi*, degan qarash mavjud, buni quyidagi xalq qo'shig'i mazmunidan ham bilib olishimiz mumkin:

*Oq ilon, oppoq ilon,
Oydinda yurganing qani?
Men yomondan ayrilib,
Yaxshini topganing qani?*

Shuningdek, bugungi kunda ham ba'zi viloyatlarda kelin kuyov xonadoniga kelgach, barmoqlari oq unga botiriladi. Bu kelin oq undek pokiza bo'lib kelsin degan ma'noni bildiradi.

Qizil rang - kuch, bosim, energiyalar to'qashuvini bildiradi. (3). Oddiy xalq xayolida esa og'ir mehnat, urush, fojia, kurash, g'azab kabi tushunchalarni uyg'otadi. Folklor va mumtoz adabiyotda esa qizil rang - qiz bola, ayol ma'nolarini ifodalaydi. Xalq qo'shiqlarida qizil rangli predmet kelsa, u ko'pincha qiz bolaga tegishli bo'ladi.

Qiz bolaning ro'moli,

Qizil gulli shoyi.

Sumalakjon, sumalak.

Bundan tashqari, bu rang ko'pincha yor va uning labiga ishora qiladi. Masalan, "*la'li lab*" birikuvi mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan.

Telba ko'nglum yor zulfi toridan ayrilmagay,

Joni zorim la'shning guftonidan ayrilmagay. (Avaz O'tar).

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, Shayx Najmiddin Kubro 7 xil rang haqida o'z fikrlarini bildirar ekan, qizil rang irfonni bildiradi deya to'xtaladi. Irfon (arabcha, bilish, anglash) tushunish va bilim ma'nolarida qo'llaniladi. Yana bizga ma'lumki, xonlar davridagi ko'plab saroy kanizaklari va raqqosalar qizil rangli ko'ylakda tasvirlanadi.

Yashil rang - o'sish rangi. Tabiatning bahoriy uyg'onishi, yangilanish rangi. Xususan musulmon Sharqi adabiyotida Ko'p nomi tilga olinuvchi, Salmoqli hikoyat-u rivoyatlar qahramoni bo'lgan Xizr alayhissalom siymosi ham yashil kiyimli kishi sifatida tasvirlanadi:

Xirqasi axzaru aso axzar,

Go'yi ul erdi Xizr payg'ambar. [6:188]

Ushbu bayt Misr mamlakatidan bo'lgan Sa'd hikoyatidan olingan. Sa'd o'z uyida turli kishilarni, mehmon qilib, ularning qiziq sarguzashtlarini tinglar edi. Bir kuni ikki g'arib keladi. Ular boshdan oyoq yashil kiyimda edilar. Musofirlar Shahrisabzlik ekanliklarini, yashillikka burkangan yurtidan kelishganini aytadi:

Xizr monand sabzadin rangi

Sabzasi suyi ko'zgusi rangi. [6: 178]

Sa'd ko'rgan bir tushining ma'nosini topish uchun g'orda necha yildan buyon maqom tutgan bir pir bilan uchrashadi. Pir boshidan o'tgan voqealarni gapirib beradi. Donishmand bu zot tush ko'rib, ta'birini topolmay qiynalgani, jonidan umid uzganida bir pir duch kelgani, uning "xirqasi axzar" - kiyimi yashil, "aso axzar" - hassasi yashil bo'lib, xuddi Xizrga o'xshashini aytadi. [2: 6]

Mahmyd Qoshg'ariyning "Devoni lug'otut turk" asarida keltirilishicha, Qoshg'ariy yag'mo yerlarini keza turib, "Yada" toshi haqida eshitadi va unga qattiq qiziqib qoladi. U toshni shunday ta'riflaydi: "Yada toshi yomg'ir va shamol chaqirish uchun ishlatiladi va u *yashil rangda* bo'ladi". Bundan ko'rinib turibdiki, yashil rang qadimdan "yog'ingarchilik", "bahor" ramzi bo'lib kelgan.

Qora rang - o'lim, bo'shliq va jimjitlik kabi belgilarni bildiradi. Mumtoz adabiyot namunalarida "*qora soch*", "*qora ko'z*" kabi birikmalarga duch kelamiz. Masalan, Mavlono Lutfiyning "*qarodur*", Alisher Navoiyning "qaro ko'zim" radifli g'azallari shular jumlasidandir. Anbar Otinning "Qarolar falsafasi" risolasining 1-faslida qora rang haqida qiziqarli mulohazalar keltiriladi. "...aksar Janub va Sharq xalqlari monandi Arab, Eron, Afg'on, Seylon, Hind va Kashmir" xalqlarini qora tanli mehnatkash xalq deb tasvirlaydi.

Xalq og'zaki ijodida qora **qora rang** yovuzlik, gunoh kabi ma'nolarga egadir. Masalan, "*baxti qora*", "*qora kunlar*" kabi. Ko'plab ertak, maqol va matallarda, lirik qo'shiqlarda ranglardagi ramziylik poetic maqdasga xizmat qilganligining guvohi bo'lamiz:

Oq bug'doyning patiri,

O'rgamchining chatiri,

Bir-ikki og'iz aytayin,

Qora ko'zlar xotiri. (To'y olqishi).

Shuningdek, joy nomlari va ismlarga qora so'zining qo'shib aytilishi jasorat va kuchlilikni bildirib turgan.

*Tog' boshini bosar tuman,
Har ish bo'ladi begumon,
Qoraxondan aytaymi? (Nima aytay?)*

Xalq dostonlarida qora so'zi bilan boshlaniluvchi ko'plab joy nomlarini uchratamiz. Masalan, Qoratepa kabi. Motam va marosim qo'shiqlarida ham qora so'zini uchratishimiz mumkin. Quyida bu rang bevaqt kelgan o'lim, ajal ma'nosini ifodalaydi:

*Qora otlik, qora to'nlik,
Meni ko'rgani keldingmi?
Ochilgan lolazorimni
Xazon qilgali keldingmi?*

Sariq rang - ayriliq, hijron, sog'inch kabi tushunchalarni ifodalaydi. Mumtoz adabiyotda ham, folklorda ham bu rangdan unumli foydalanilgan. Sariq rang odatda, yashil rangga zid sifatida olingan. Ya'ni yashil yosharish bo'lsa, sariq keksalik sifatida qaralgan. O'zbek folklorida ham sariq ayriliq belgisi sifatida qaralgan. "Kelinning sepiga sariq rangli narsa solinmaydi, bu ayriliqqa olib keladi" (to'y marosimlarida aytilgan tabular).

*Sandiq usti sariq gul,
Taqsam ado bo'lmaydi.
Yurakdagi hasratni,
Aytsam ado bo'lmaydi.*

She'rda aynan **sariq gul** deyilishi bejizga emas. *Yurakdagi hasrat* bilan, *sariq gul* o'rtasida bog'liqlik mavjud.

Qadimda ota-bobolarimiz sariq rangni sariq kasalga davo deb bilishgan. Shuning uchun bemorga sariq libos kiydirishgan va uyini sariq rangli jihozlar bilan bezatishgan. Alisher Navoiy sariq rang haqida shunday degan,

*Yara qon da'fi sariq jins qilur, turfa ko'rung
Kim bilur tegsa yuzing to'kig'a biryor sarig'.*

Ko'k rang - motam, tushkinlik ramzi. Adabiyotda "**ko'k**" rangini "**moviy**" sifatida ishlatilishini ham ko'ramiz. Odatda yoshi ulug' insonlar orasida va qipchoq lahjasida gaplashuvchi kishilar so'zlashuvida ham biz yashil o'rniga *ko'k* deb, ko'k rangini esa, *moviy* deb aytilishiga guvoh bo'lamiz.

M.Ro'ziyevaning shu mavzuga oid tadqiqotlarida keltirilishicha, *azaldanoq turkiy xalqlarda azador insonlar ko'k rangli kiyim kiyib yurishgan va bu an'ana bugungi kunda ham mavjud. Buning o'ziga xos tarixi bo'lib, osmon va suv marhumlar orom topadigan yer sifatida qaralgan, shu sababli ko'k rang motam timsoli bo'lib qolgan.*

Umuman olganda, insoniyat qadimdanoq rang-baranglikga intilib kelgan. Folklor va yozma adabiyot namunalarida ranglar o'ziga xos poetik maqsadlarda, ruhiyat holat, qahramonlar ichki olami, kayfiyati, kechinmalarini tasvirlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, turli davrlarda ma'lum rangga nisbatan turli (salbiy yoki ijobiy) munosabat mavjud. Bunga ba'zan muayyan rangning o'ziga xos simbolikasi, tabiatda uchrash holati, ba'zan diniy-e'tiqodiy masalalar sabab bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonova. A. Saodatga eltuvchi bilim. – Toshkent: "Movorounnahr", 2005. 552 b.
2. Jumaboyeva D. Mumtoz va folklor asarlarda rang simbolikasining lingvokulturologik xususiyatlari // ERUS, 9-son.
3. Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – Toshkent: "Talqin", 2008. 194 b.
4. Muminova S. Yodgorliklarda qo'llanilgan bezaklarda ishlatilgan ranglar ahamiyati // Международный научный, 2-son.
5. Alisher Navoiy. Sabba'i sayyor. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2008. 344 b.